

**O'zbek tilida ma'no ko'chish usullari : Metafora ,
Metanomiya,Sinekdoxa,Vazifadoshlik,Kinoya .
Monosemiya , Polosemiya .**

Xoldarova Marjona Xakim qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti o'zbek tili va adabiyot
fakulteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda o'zbek tilimizdagi ma'no ko'chish uslublari , ularning turlari, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar , ular haqida ma'lumotlar va ularga misollar ham keltirilgan . Ma'no ko'chish uslublari : metafora, metanomiya,sinekdoxa , vazifadoshlik,kinoya ,monosemiya va polosemiya haqida malumotlar berilgan va misollar ham chuqurlashtirilgan holda yoritilgan .*

Kalit so'zlar : *metafora ,metanomiya ,sinekdoxa ,vazifadoshlik, kinoya,monosemiya, polosemiya,ma'no ko'chishi,til birligi, tilshunoslik,ob'ekt,leksik semantik tahlil.*

KIRISH

Ul sanamkim,suv yaqosinda paritek o'lturur,

G'oyati nozukligidin suv bila yutsa bo'lur.

Bu kabi go'zal so'zlarni faqatgina o'zbek adabiyotlarida ko'rishingiz mumkin. Chunki, bu so'zlardan foydalanish, bu kabi uslub bizning qalami takrorlanmas shoirlarimizga ,yozuvchilarimizga hosdir.

So'zlarimizda 2 xil ma'no turi mavjud bo'lib , birinchisi monosemiya , ikkinchisi polosemiya deb ataladi .

Monosemiya – “bir ma'noli” degan ma'noni anglatadi va leksik semantik tahlil uchun uslub hisoblanadi. U yakka holda ham va xar qanday matn va she'rdada bir ma'noni anglatsa bu o'z ma'noli so'z deyiladi . Buni misollar bilan ko'rishimiz mumkin. Misol uchun : “ Bir piyolaga chanqog'im qoldi” bu gapda “ piyola

“ so’zini yakka holda qo’llasak , narsa buyum ma’nosida qo’llanmoqda , va uni ichiladigan narsa deb olmaymiz .

Polosemiya – “ ko’p ma’noli ” degan ma’noni anglatadi . U yakka holdagi ma’nosi bilan har qanday matn ichidagi ma’nosi ikki xil bo’lsa unda bu so’z matn ichida ko’chma ma’noda qo’llanayotgan bo’ladi . Misol uchun : “ U menga achchiq gaplarni aytdi” bu gapda “achchiq” so’zini yakka holda qo’llab ko’rsak , achchiq so’zi qalampir va choyga nisbatan o’z ma’nosida qo’llaniladi. “ achchiq gap” , “ achchiq qarash” bunday birikmalar bilan gaplarda kelganda “achchiq” so’zi o’z ma’nosidan chiqib, ko’chma ma’noda qo’llanayotgan bo’ladi .

Ma’no ko’chish usullari to’rt xil va ular bilan ozgina tanishib olamiz boshlang’ich tushunchaga ega bo’lishimiz uchun .

Metafora - tashqi o’xshashlik munosabati.

Metonimya - aloqadorlik munosabati.

Sinekdoxa – butun va qism munosabati.

Vazifadoshlik – vazifadagi o’xshashlik munosabati .

Kinoya – so’zlarni teskari ma’noda qo’llash.

Bular ma’no ko’chish usullarining ketma- ketligi hisoblandi. Biz birinchi bo’lib Metafora bilan tanishamiz.

1.Metafora – (grekcha “ko’chirish”) biror – bir predmetning , harakat – hodisaning , belgisining o’xshash tomonini boshqasiga ko’chirishdir. Metafora ko’proq quydagilarga : shakliy o’xshashlik , harakat o’xshashligi , belgi o’xshashligi va joylashish o’rniga ko’ra o’xshashlik bilan farqlanadi .

1). Shakliy o’xshashlik :

Odamning qulog’i – qozonning qulog’i

Odamning ko’zi – daraxtning ko’zi

Odamning og’zi – quduqning og’zi

2). Harakat o’xshashlik :

Stadionda yugurmoq – yuziga qon yugurmoq

Ipni uzmoq – aloqani uzmoq

Dorini surmoq – xayol surmoq

3).Belgi o'xshashligi :

Shirin olma – shirin bola

Achchiq qalampir – achchiq gap

Sovuq havo – sovuq chexra

4).Joylashish o'rniga ko'ra o'xshashlik :

Itning dumi – samalyotning dumi

Qushlar , hayvonlar, o'simliklar va gullarning nomlari insonlarga nom sifatida qo'yilsa , metafora deb olinadi .

Lola , Rayxona , Lochin , Arslon , Temir , Venera – metafora usulida ma'no ko'chgan.

2.Metonymiya-(yunonchadan - qayta nomlash) biror narsa va predmet o'zaro aloqadorlik asosida ma'no ko'chishidir.

1).Makon ko'chishi :

Zal oyoqqa turdi.

Dilnurani kutib olish uchu butun Toshkent otilib chiqdi.

Butun qishloq maktab qurilishiga otlandi.

2).Muallif nomi vaqtincha asar nomiga ko'chishi :

Sizda Navoiy bormi .

Hozir Zulfiyani yodlayapman.

Bedilni o'qib kun yorishganini bilmay qoldim.

3). Narsa va predmet o'lchov birligi bo'lib xizmat qiladi:

Bir qop oldim .

Bir qop un oldim.

Bir yashik oldim.

Bir yashik olma oldim.

4).Raqamlar mahsulotlar bo'lib xizmat qiladi:

80 dan quyvoring

80 benzindan quyvoring

95 bormi

95 choy bormi

5).Agar bayram, xafta kunlari insonlarga isim sifatida qo'yilsa , metonimya bo'ladi.

Chorshanbi, Navro'z, Hayit, Jumavoy, Ro'zivoi, Arofat , Safarali va hakazo.

Metafora va Metanimya bir- biriga o'xshash bo'lgani uchun ularni farqlash lozim. Buning uchunavval ma'nosi ko'chgan so'zni topishimiz kerak keyin esa u so'zning ma'nosi qanday ko'chganligini aniqlaymiz , agar tashqi ko'rinish jihatdan o'xshash bo'lsa metafora , aloqa yuzasidan ma'no ko'chganda metonimya deb olamiz.

3.Sinekdoxa - (yunoncha synechdoche- birgalikda anglash) qism orqali butun yoki butun orqali qismni anglatish ma'no ko'chishidir . Masalan : “ mahallamizda begona oyoqlar ko'payib qolibdi” deganda oyoqni deb begona odamlarni nazarda tutmoqda , oyoq odamning bir qismi bo'lganligi uchun qism orqali butunni anglatmoqda , “ sening dastingdan qora boshim oqardi “ deganda qora boshim deb oqargan sochlarini nazarda tutmoqda , qora bosh butun qism bo'lgani uchun butun orqali qismni anglashimiz lozim .

a) qism orqali ma'no ko'chishi :

Tirnoqa zor.

Bizning eshikka ham kirib turing .

Eshitgan quloq nima deydi.

b) butun orqali qism

Daraxtda qush o'tribti .

Sening dastingdan qora boshim oqardi.

Olma to'g'rayotganda qolini kesib oldi.

Besh qo'l barobar emas.

Shu o'rinda sinekdoxa va metonimyani ham farqlashimiz kerak . Buning uchun o'zimizga oddiygina bir savolni berib aniqlab olamiz ya'ni mana shu narsa predmet o'zi ifodalayotgan narsa yoki predmetning qismi yoki butuni bo'la oladimi? Agar qismi yokida butuni bo'la olsa sinekdoxa , bo'la olmasa metonimya hisoblanadi.Buni misollar orqali ko'rib chiqamiz.

1.Majlisga mo'ylov ham kelgan edi.

2. Majlisga ko'zoynak ham kelgan edi.

Mana shu ikki gap orqali yoritamiz .Ya'ni birinchi gapimiz “ majlisga mo'ylov ham kelgan edi” deganda mo'ylov orqali butun boshli bir odamni tushunamiz va bu qism oqali butunlikni anglatadi ya'ni sinekdoxa.Ikkinchi gapimizda “ majlisga ko'zoynak ham kelgan edi” deganda ko'zoynakli odam ham kelgan edi deb aytmoqda ,ammo , ko'zoynak odamning bir qismi bo'la oladimi? Yo'q faqatgina qo'li , oyog'I , sochi shu kabi tana azolari bir qismi bo'la oladi . Shu sababli ko'zoynakni butun orqali qism yoki qism orqali butun deb olmaganimiz uchun metonimya deb olishimiz kerak.

4.Vazifadoshlik – (yunonchadan – vazifasi bir xillikdir) narsa predmetning bajaradigan vazifasini bir biriga o'xshashligi asosida ma'no ko'chishidir.Buni quyidagicha tushunib olishimiz mumkin , ya'ni misollar yordamida .Misol uchun : odamning oyog'i va stulning oyog'i. Bunda odamning oyog'i o'zining ma'nosida chunki odamning oyog'i bo'ladi va u jonli ammo stulning oyog'i ko'chma ma'noda chunki stul jonsiz narsa , stulning oyog'I bo'lmaydi.

Kamonning o'qi va miltiqning o'qi.

Qushning qanoti va samalyotning qanoti .

5.Kinoya – (teskari ma'no) so'zlar doim teskari ma'noda qo'llanadi. Ya'ni doim qo'shtirnoqqa olinib yoziladi. Faqat bundan ayrim so'zlar mustasno hisoblanadi. Ularga bir qancha misollar keltirishimiz mumkin . Ularni faqlash ham onson ya'ni misollar yordamida ko'radigan bo'lsak “sizning shirin gaplaringiz yuragimga og'ir botdi” bu yerda “shirin gaplaringiz” aslida achchiq , og'r ma'nolarida qo'llangan .

Dushmanlaringiz sizni rosa maqtashayotgandir.

Bola qilgan jazosi uchun juda yaxshi mukofotlandi.

Shipionlar haqida gaplashyapmiz .

Kinoyadan mustasno bo'lgan ayrim so'zlar bu shartli nomlardir. Misol uchun : To'yim "Humo" to'yxonasida bo'ladi. Menga "Jimjitlik" romani juda yoqadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, so'z nihoyatda murakkab xususiyatlarga ega til birligi hisoblanadi. Biz bu til birligi bilan tilshunoslikning maxsus ob'ektlarini chuqurroq o'rganishimiz mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- 1." Adabiyot" (Boqijon To'xliyev, Baxodir Karimov, Komila Usmonova. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik – majmua. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent – 2017).
- 2.Hozirgi o'zbek adabiy tili.1-jild.Toshkent,1966 yil.
- 3.S.Shermamatova & Nilufarxon Sobirova & Zeboxon Nazirova.2023 O'zbek tilida ma'no ko'chish usullari : metafora ,metanomiya , vazifadoshlik , sinekdoxa .
- 4.Talaba Farruh Botirboyevning leksikalogiyadan abuturentlar uchun qo'llanmasi.
- 5.O'zME.Birinchi jild .Toshkent,2000-yil.
- 6.O'zbek tili stilistikasi.T. : O'qituvchi , 1983, -B.246.